

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01**

RAQAMLI ILMIY KENGASH

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

ABDURAHMONOVA ULDONA ABDUJAPBAROVNA

**ESHQOBIL SHUKUR SHE‘RIYATIDA “HAYRAT” KATEGORIYASI VA
UNING BINARLIK TABIATI**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on Philological Sciences**

**Оглавление автореферата доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

Abdurahmonova Uldona Abdujapbarovna

Eshqobil Shukur she‘riyatida “hayrat” kategoriyasi va uning binarlik tabiati

.....3

Abdurahmonova Uldona Abdujapbarovna

The category of “wonder” and its binary character in the poetry of Eshqobil Shukur

.....27

Абдурахманова Ульдона Абдужапбаровна

Категория “восхищения” в поэзии Эшқобила Шукура

и ее бинарная природа.....50

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....55

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

ABDURAHMONOVA ULDONA ABDUJAPBAROVNA

**ESHQOBIL SHUKUR SHE’RIYATIDA “HAYRAT” KATEGORIYASI VA
UNING BINARLIK TABIATI**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida V2023.1.PhD/Fil3071.raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsuull.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich
filologiya fanlari doktori, akademik

Rasmiy opponentlar:

Meliyev Suvonqul
filologiya fanlari doktori, professor

Toshniyozova Ra’no Toxirovna
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 24-may soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, (www.tsuull.uz); e-mail: monitoring@www.tsuull.uz.)

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (288-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, (www.tsuull.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “ ____ ” _____ kuni tarqatildi.

(2024-yil “ ____ ” _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

H.A.Dadaboyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filol.f.d., professor

Q.U.Pardayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filol.f.d., professor

N.A.Jabborov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon falsafasi va ijtimoiy antropologiyasida hayrat tushunchasiga insonning o‘z mohiyatini idrok qilish, koinotning bepoyon sarhadlari va sirli qonuniyatlarini kashf etish va tasavvur qilish jarayonidagi hissiyotlar majmuida o‘zini namoyon qiladigan hodisa deb qaraladi. Insonni sezishga, anglashga, fikrlashga va tuyg‘ularini ifodalashga asos bo‘lgan hayrat hodisasi inson ma‘rifati darajalariga uyg‘un ravishda ko‘p darajali va ko‘p qirralidir. Hayratning voqe bo‘lishi, ijodkor ruhiyatida sintezlanishi, badiiy asarga ko‘chishi va o‘quvchi ong-qalbida in‘iko topish bosqichlari bu tushunchaning binar xususiyatga ega ekanligidan darak beradi.

Dunyo adabiyotshunosligida oxirgi davrlarda sharq-islom ma‘rifatining bosh konsepsiyalaridan biri hisoblangan hayrat fenomenini badiiy-falsafiy rakursda tadqiq etish, “hayrat” kategoriyasining falsafiy-retseptiv, badiiy-retseptiv mohiyati va uning binarlik tabiati aks etgan badiiy asarlarni jahon adabiy-estetik tafakkurining in‘ikosi sifatida o‘rganishga qaratilgan harakatlar qo‘llab-quvvatlanmoqda.

O‘zbekistonda ham zamonaviy ijodkorlarning asarlarida aks etgan mumtoz diniy-falsafiy va tasavvufiy she‘riyatdagi an‘anaviy g‘oyalarning yangicha talqinlarini tadqiq etish ishlari boshlangan bo‘lsa-da, hayrat tushunchasining nazariy-amaliy mohiyati, o‘zbek zamonaviy she‘riyatida “hayrat” kategoriyasining badiiy formulasi, ta‘rif-tavsifi, o‘rni, uning binarlik tabiati xususida tadqiqotlar olib borilmagan. O‘zbek shoirlari asarlaridagi lirik obrazlar mozaikasi, metafora va ramzlar, so‘z qo‘llash va lirik ifoda individualligi masalalarini hayrat fenomeni atrofida yaxlit ilmiy asosda yoritish muammoning zaruriyligini belgilaydi. Zamonaviy o‘zbek poeziyasining yuksalish davri sifatida e‘tirof etiladigan 1980-yillarning ikkinchi yarmida – O‘zbekiston mustaqilligi arafasida o‘zbek she‘riyatiga kirib kelgan Eshqobil Shukur she‘riyati asosida “hayrat” kategoriyasining lirik asarda namoyon bo‘lish prinsiplari, olam va odamni badiiy idrok etish hamda uni lirik ifodalash jarayonlarini yagona tizim sifatida o‘rganish, “hayrat” kategoriyasining binarlik tabiati, zamonaviy o‘zbek she‘riyatida tutgan o‘rni va ayni kategoriyani o‘rganishning nazariy-estetik mohiyatini yoritib berish zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligi oldida turgan muhim muammoni yechishga xizmat qilishini anglatadi, ishning dolzarbligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”, 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”, 2018-yil 5-apreldagi PQ-3652-son “O‘zbekiston

Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning davlat dasturlari yoki ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Hayrat qonuniyati jahon falsafasi va adabiyotida Suqrot, Aflotun, Arastu, Frensis Bekon, Rene Dekart, Tomas Gobbs, Gegel, Erix Fromm va boshqa mutafakkirlar tomonidan tadqiq etilgan. Akademik Shuhrat Sirojiddinov “Alisher Navoiy aqidalari” risolasida “Hayrat ul-abror” dostonidagi “uch hayrat”ni “ilm ul-yaqin” (o'qish, o'rganish, mantiqiy xulosa chiqarishdagi nazariy bilimlar), “ayn ul-yaqin” (kuzatish oqibatida qat'iy xulosaga kelish) va “haqq ul-yaqin (idrok qilish, o'zida his qilish) istilohlari vositasida bilish nazariyasining uch bosqichi sifatida ifoda etgan. Adabiyotshunos U.Jo'raqulov esa “hayrat” fenomenining “Xamsa” badiiy xronotopidagi o'rni va vazifasi, birinchidan, muallifning (Alisher Navoiyning) Yaratganni va o'zini anglashdagi yetakchi ma'rifiy konsepsiyasi, ikkinchidan, xamsachilik tarixidagi kompozitsion an'analar, uchinchidan, “Xamsa”dagi inson obrazini badiiy talqinlash usulidan kelib chiqib belgilanganini ilmiy asoslab bergan. U.Jo'raqulovga ko'ra, butun “Xamsa” konsepsiyasi “hayrat” tushunchasi asosiga qurilgan. “Uch hayrat” bo'limida esa ayni istiloh mohiyati “avvalgi” va “o'rta” olamlar xronotopi sintezi asosida yoritilgan.

Yaratganni tanish, o'zlik va borliqni anglashning yo'li sifatida ifodalangan ma'rifat va hayrat fenomenlari milliy folklor va sharq-islom tafakkurini bir nuqtada uyg'unlashtira olgan, tom ma'nodagi katta shoir E.Shukur she'riyatidagi syujet, obraz, kompozitsiya, uslub, detal, ramz singari badiiy komponentlar tabiatini, E.Shukur she'riyati konsepsiyasini ham belgilaydi.

E.Shukur she'rlari Q.Yo'ldoshev, Q.Qahramonov, A.Ulug'ov, S.Umirov tadqiqotlarida adabiy jarayon, g'oyaviy-estetik va badiiy xususiyatlar, yetakchi poetik obrazlar ko'lami, I.Ernazarovanning PhD dissertatsiyasida tilshunoslik nuqtai nazaridan ilmiy tahlil qilingan. Biroq shuni alohida ta'kidlash kerakki, E.Shukur asarlari bir butun badiiy tizim tarzida, uning she'riyatidagi “hayrat” kategoriyasi va uning binarlik tabiati yagona monografik muammo doirasida maxsus tadqiq etilmagan. E.Shukur ijodiy shaxsiyati olamni estetik idrok qilish subyektivi sifatida alohida o'rganilmagan, ilmiy-nazariy nuqtai nazardan tizimga solinmagan. Bularning barchasi E.Shukur she'riyatini individual badiiy butun garmoniya sifatida tahlil va talqin etish zaruratini ko'rsatadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot

ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbek adabiyoti tarixini o‘rganishning konseptual muammolari” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Eshqobil Shukur she‘riyati asosida “hayrat” kategoriyasining lirik asarda namoyon bo‘lish prinsiplari, olam va odamni lirik idrok etish hamda uni lirik ifodalash jarayonlarini yagona tizim sifatida o‘rganish, ayni jarayonning binarlik tabiatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

“hayrat” kategoriyasining tadrijiy takomili, shakllanishi va o‘zbek mumtoz she‘riyatida namoyon bo‘lish tarixi, jahon adabiyoti, nazariy tafakkuriga xos ko‘rinishlarini tizimlashtirish, ilmiy asoslash;

“hayrat” kategoriyasining binarlik tabiati, zamonaviy o‘zbek she‘riyatida tutgan o‘rni va ayni kategoriyani o‘rganishning nazariy-estetik mohiyatini yoritib berish;

olam va odamni badiiy idrok etishda ijodkor subyektining “hayrat” kategoriyasi bilan serkulyar munosabatda ekanini ilmiy dalillash;

E.Shukur lirikasida lirik obraz, metafora, ramz, lirik ifoda va individual uslubning retseptiv jarayonga xos muhim vositalar ekanini isbotlash;

E.Shukur she‘riyatida “hayrat” kategoriyasi va uning binar funksiyasi xususida nazariy umumlashmalar chiqarish.

Tadqiqot obyektini sifatida E.Shukurning “Yurakni o‘rganish” (1984), “Sochlari sumbul-sumbul” (1988), “Tungi gullar” (1989), “Yashil qushlar” (1995), “Hamal ayvoni” (2003), “Ko‘z yumib ko‘rganlarim” (2013) kabi she‘riy kitoblari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini “hayrat” kategoriyasining lirik asarda namoyon bo‘lish prinsiplari, E.Shukur ijodiy shaxsiyati olam va odamni lirik idrok etish hamda uni lirik ifodalash jarayonlarini yagona tizim sifatida o‘rganish, ayni jarayonning binarlik tabiatini nazariy asoslash masalalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda germenevtik, biografik, psixoanalitik va struktur tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

o‘zbek adabiyotshunosligida ilk bor hayrat tushunchasining nazariy-estetik mohiyati sharq-islom ma‘rifiy tafakkuri aspektida alohida muammo sifatida ochib berilgan hamda hayrat fenomenining tadrijiy takomili, shakllanishi, o‘zbek mumtoz va zamonaviy she‘riyatida namoyon bo‘lish tarixi aniqlanib, hayratning kategorial xossalari asoslangan;

Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonining “Uch hayrat” bo‘limi asosida “hayrat” kategoriyasi insonning Yaratganni tanishi, o‘zligi va borliqni anglashidagi yetakchi ma‘rifiy konsepsiya sifatida o‘zbek mumtoz va zamonaviy she‘riyati markazida yashab kelayotgani ilmiy-konseptual isbotlanib, “hayrat” kategoriyasi va uning binarlik tabiati E.Shukur ijodiy shaxsiyati misolida sistematik dalillangan;

olam va odamni badiiy idrok etishda ijodkor subyektining “hayrat” kategoriyasi bilan serkulyar munosabatda ekani ilmiy dalillangan va o‘zbek adabiyotidagi “to‘rt unsur” metaforalar tizimi E.Shukur ijodi misolida bir butun badiiy sistema sifatida ochib berilgan;

E.Shukur ijodida hayrat fenomenining voqelikni badiiy idrok etishdagi o‘rni, uning ijodkor botinida sintez qilinish jarayonlari, ijodiy jarayonga doir ayni holatlarning lirik ifodalanishi va uning binarlik tabiati borasidagi yangi nazariy umumlashmalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o‘zbek adabiyotshunosligida ilk bor Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonining “Uch hayrat” bo‘limi asosida hayrat tushunchasining nazariy qonuniyati, kategorial xossalari jahon falsafasi, dunyo va o‘zbek adabiyoti aspektida tadqiq etilib, hayrat yo‘li darajalari tasniflangan, tarkibiy qismlari tizimlashtirilgan;

“Hayrat ul-abror” dostonidagi “Uch hayrat” konsepsiyasi asosida hayrat fenomeni alohida badiiy kategoriya, hissiyot va hayronlik, tafakkur va taajjub, haqiqat va hayrat munosabatlaridan iborat yagona konseptual falsafiy-badiiy tizim ekani ilmiy asoslangan, ya’ni har bir shoir ijodiy shaxsiyatidagi hayrat holini belgilashning asosiy mezoni-indikator sifatida ilk marta “Uch hayrat” badiiy-estetik formulasi ishlab chiqilgan;

“hayrat” (hayronlik, taajjub, lollik) tushunchasi hissiy, aqliy bilish va ilohiy bilim nazariyalaridagi “bilish” tushunchasining muqobili sifatida taklif etilib, E.Shukur ijodidagi “Uch hayrat” ko‘lami aniqlangan;

E.Shukur ijodiy shaxsiyatining asosiy badiiy kulti, katarsis mexanizmi hisoblangan lirik obrazlar, metafora va istioralar ilmiy-badiiy tahlil qilinib, ular tuproq, suv, havo, olov metaforalar tizimi – bir butun badiiy sistema sifatida ilmiy tasniflanib, “To‘rt unsur” hayrati”, degan ilmiy to‘xtamga kelingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi muammoning aniq qo‘yilgani, qo‘llanilgan ilmiy usullar va nazariy ma’lumotlarni berishda aniq ilmiy manbalarga tayanilgani, tahlilga tortilgan materiallarning ilmiy metodlar vositasida asoslangani, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi, adabiyotshunoslikning zamonaviy ilmiy konsepsiyalari asosida tahlil va talqin qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shu bilan belgilanadiki, Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonining “Uch hayrat” bo‘limi asosida hayrat tushunchasining nazariy qonuniyati, kategorial xossalari ilk bor jahon falsafasi, dunyo va o‘zbek adabiyoti aspektida tadqiq etilib, “Uch hayrat” konsepsiyasi asosida badiiy adabiyotdagi hayrat fenomeni alohida badiiy kategoriya, yagona konseptual falsafiy-badiiy tizim ekani asoslangani har bir shoir ijodiy shaxsiyatidagi hayrat holini belgilashning asosiy mezoni-indikator sifatida xizmat qilishi, bu ilmiy yutuqlar esa “hayrat” kategoriyasini tayyor nazariy formula sifatida istalgan ijodkorning asarlariga qo‘llash mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, XX asr ikkinchi yarmi va XXI asr boshlari o‘zbek adabiyoti nazariyasi va adabiy jarayoni bo‘yicha tadqiqotlar uchun material bera oladi, oliy o‘quv yurtlarining “O‘zbek filologiyasi” ta’lim yo‘nalishlarida “Adabiyot nazariyasi”, “Adabiyotshunoslikka kirish”, “Adabiyotshunoslik (o‘zbek adabiyoti)” magistratura mutaxassisligida “Adabiyot

nazariyasi”, “Zamonaviy matnshunoslik asoslari” kabi fanlardan ma’ruzalar o‘qishda va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazishda, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar yaratishda manba bo‘lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Eshqobil Shukur she’riyatida “hayrat” kategoriyasi va uning binarlik tabiati tadqiqi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

o‘zbek adabiyotshunosligida ilk bor hayrat tushunchasining nazariy-estetik mohiyati sharq-islom ma’rifiy tafakkuri aspektida alohida muammo sifatida ochib berilgan hamda hayrat fenomenining tadrijiy takomili, shakllanishi, o‘zbek mumtoz va zamonaviy she’riyatida namoyon bo‘lish tarixi aniqlanib, hayratning kategorial xossalari aniqlangani hamda Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonining “Uch hayrat” bo‘limi asosida “hayrat” kategoriyasi insonning Yaratganni tanishi, o‘zligi va borliqni anglashidagi yetakchi ma’rifiy konsepsiya sifatida o‘zbek mumtoz va zamonaviy she’riyati markazida yashab kelayotgani ilmiy-konseptual isbotlanib, “hayrat” kategoriyasi va uning binarlik tabiati E.Shukur ijodiy shaxsiyati misolida sistematik dalillanganligiga doir ilmiy-nazariy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2020–2022-yillarda bajarilgan AM-F3-201908172 raqamli “O‘zbek tilining ta’limiy korpusini yaratish” loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 22-noyabrdagi 04/1-2473-son ma’lumotnomasi). Natijada Alisher Navoiy, E.Shukur she’rlari matni ilmiy va badiiy tahliliga oid materiallar o‘zbek tilining ta’limiy korpusini yaratishga asos bo‘lgan.

Olam va odamni badiiy idrok etishda ijodkor subyekting “hayrat” kategoriyasi bilan serkulyar munosabatda ekani ilmiy dalillangan va o‘zbek adabiyotidagi “to‘rt unsur” metaforalar tizimi E.Shukur ijodi misolida bir butun badiiy sistema sifatida ochib berilganligi hamda E.Shukur ijodida hayrat fenomenining voqelikni badiiy idrok etishdagi o‘rni, uning ijodkor botinida sintez qilinish jarayonlari, ijodiy jarayonga doir ayni holatlarning lirik ifodalanishi va uning binarlik tabiati borasidagi yangi nazariy umumlashmalar ishlab chiqilganiga oid ilmiy-nazariy xulosalaridan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2019–2022-yillarda bajarilgan A-OT-2019-10 raqamli “O‘zbek tilida neyning: me’yoriy-huquqiy asoslarini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 22-noyabrdagi 04/1-2474-son ma’lumotnomasi). Natijada, shoir she’rlarining yillar kesimidagi qiyosiy tahlili, nazmiy matnlardagi adabiy til me’yorlariga qay holatda amal qilganligi masalasiga doir tahliliy materiallar tayyorlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy-amaliy anjumanlarida, jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 9 ta ilmiy maqola chop etilgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish

tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta, jumladan, 3 tasi respublika hamda 2 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda maqola nashr qilingan.

Dissertatsiya hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Tadqiqotning hajmi 155 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan. Tadqiqot maqsadi, vazifalari, predmeti, fan va texnologiyalar rivojidadagi ustuvor yo'nalishlarga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tuzilishi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning dastlabki bobi **“She'riyatda “hayrat” kategoriyasi va uning adabiy-tarixiy, badiiy-retseptiv mohiyati”** deb nomlangan. Bobning birinchi fasli *“O'zbek mumtoz she'riyatida “hayrat” kategoriyasining o'rni”* ga bag'ishlangan bo'lib, unda Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonining “Uch hayrat” bo'limi asosida hayrat tushunchasining nazariy qonuniyati, kategorial xossalari jahon falsafasi, dunyo va o'zbek adabiyoti aspektida tadqiq etilib, hayrat yo'li darajalari tasniflangan, tarkibiy qismlari tizimlashtirilgan. “Uch hayrat” konsepsiyasi asosida hayrat fenomeni alohida badiiy kategoriya, hissiyot va hayronlik, tafakkur va taajjub, ma'rifat va hayrat munosabatlaridan iborat yagona konseptual falsafiy-badiiy tizim ekani ilmiy asoslangan. Ya'ni har bir shoir ijodiy shaxsiyatidagi hayrat holini belgilashning asosiy mezoni-indikator sifatida ilk marta “Uch hayrat” badiiy-estetik formulasi ishlab chiqilgan. *“Hayrat” tushunchasining binarlik tabiati* sarlavhali ikkinchi faslda esa “hayrat” kategoriyasining binarlik tabiati, zamonaviy o'zbek she'riyatida tutgan o'rni va ayni kategoriyani o'rganishning nazariy-estetik mohiyati yoritib berilgan.

Xususan, “hayrat” tushunchasi odamzotning kutilmagan hodisalar yoki voqelikka shunchaki hissiy-fiziologik munosabatigina emas, balki insonning o'z mohiyati – hayot mazmuni, olam va odam munosabatlarini anglash, kognitiv idrok yo'lini anglatadi. Arastu fikricha, inson har qanday bilimning o'ziga daxldor sabablarini anglashga intiladi, mutafakkir shundan kelib chiqib, *“inson faqat biror narsa nimaga shunday ekanligini bilgunicha hayratlanishi mumkin, xolos”*, deydi¹. Dekartga ko'ra, inson faqat noyob va g'ayrioddiy narsalarni diqqat bilan ko'rib chiqqanda, qalbdagi ajablanish va hayronlik holi paydo bo'ladi² ...

Inson hayotining mazmuni bo'lgan hayrat qonuniyati, bizningcha, Qur'oni Karim va hadisi shariflardagi **“Olamdagi har bir yaratiq – mo'jiza”** modeliga

¹https://platon.net/load/knigi_po_filosofii/istoriya_antichnaja/aristotel_sochineniya_v_chetyrekh_tomakh_tom_1_red_v_f_asmus/7-1-0-389

² Рене Декарт. Сочинения, в двух томах. Том 1, Страсти души, – М.: Мысль, 1989.

asoslanadi. “Osmonlar-u yerning, quyosh-u oyning yaratilishi³da, kecha-kunduzning almashinishida”⁴, sobit-u sayyorada baland tog‘lar barpo qilinishi, anhorlar-daryolar oqizib qo‘yilishi, mevalarning juft-juft bo‘lishi, kechaning kunduzga o‘ralishi⁵da tafakkur qiluvchi insonlar uchun alomatlar, belgilar bor.

Sharq-islom ma‘rifatiga ko‘ra, hayrat – Alloh odamga nozil etgan ilk ne‘mat bo‘lib, inson Yaratganni, yaratilarni (borliq va yo‘qlikni), o‘z mohiyatini shu yo‘l bilan angelaydi, hayrat fenomeni ma‘rifat hosilasidir. Hayrat tushunchasining falsafiy-retseptiv, badiiy-retseptiv mohiyati buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy she‘riyatida bor bo‘y basti bilan namoyon bo‘lgan, hayrat fenomeni – Alisher Navoiy ijodining asosiy konsepsiyalaridan biri hisoblanadi.

“Hayrat ul-abror”ning “**Avvalg‘i hayrat**” bobida Alisher Navoiy inson qalbining ilohiy ko‘rsatma (“g‘ayb hotifi”, “hotifiy nido”, naql) vositasida ma‘rifatga erishish jarayonini, Yaratgan oldidagi hayrat darajalarini uch bosqichda ifodalaydi:

– **hissiyot bilan bilish** (*yaralish – hayronlik – taslimlik – bilim*), ya‘ni ko‘ngil yo‘qlik dunyosidan borlik olamiga kelgach, mulk dunyosidagi barcha narsadan lol qolishi, lekin ularni ham, o‘zini ham bilmasligi va bilmasligini bilishi, o‘z o‘jizligini tan olishi;

– **tafakkur bilan bilish** (*bilim – taajjub – ibrat – ilm*), ya‘ni inson qalbining mulk olamiga sayrida har bir yaratil mukammal ekanini bilishi, bu mukammallik oldida taslim bo‘lishi, muslimlik ilmga yo‘l ochishi;

– **ma‘rifat bilan bilish** (*ilm – muslimlik – ma‘rifat*), ya‘ni ko‘ngil yaratilarning asli, asosi, javhari, Muallifini anglashi, ularning Buyuk Vazifa – o‘z Robbisi ismini zikr etib, o‘z holiga, hayotiga, qismatiga, taqdiriga rozi bo‘lib, shukr qilishini bilishi bilan iymonga kelishi, tom ma‘noda o‘z xojalik maqomini anglashi.

“**Ilk hayrat**”da ko‘ngil “*xoja*” maqomida “*yaralish – hayronlik – taslimlik – bilim – taajjub – ibrat – ilm – muslimlik – ma‘rifat*” darajalarini bosib o‘tgan bo‘lsa, “**Ikkinchi hayrat**”da “**humoyunbol qush**” (*sharafxayol qush*) yoki “**toyiri qudsiy**” (*pok qush*) maqomida “*ma‘rifat – lollik – yolg‘izlik – parishonlik – o‘zsizlik*” hollarini o‘zidan kechiradi. Alisher Navoiy bu bob badiiy preambulasida “bu hayrat ani bexudluqqa solg‘oni...”, bob yakunida “hush zavoli bila bexud ani” iboralarini bejiz qo‘llamagan. “Bexudluq” – “hushsizlik, o‘zini yo‘qotganlik, o‘zini bilmaslik” kabi ma‘nolarni bildirishi⁶ni inobatga olsak, o‘zsizlik holatini “mensizlik” (men – Men emas, o‘z – O‘z emas, ya‘ni yaratil hali Yaratgan halqasida o‘z o‘rnini topolmadi), “manzilsizlik”, “vatansizlik” (qalb o‘z manzilini topolmagan) tarzida ifodalash mumkin. O‘zsizlikdan avval kelgan yolg‘izlik (Yagona ibodat halqasiga birlasha olmaganlik) va parishonlik (o‘z holiga O‘zi hayronlik) holatlari esa buni badiiy jihatdan quvvatlaydi, ma‘no tomondan dastaklaydi. Alisher Navoiy “Uchinchi hayrat”

³ “Yasin” surasi, 38–40-oyatlar, Qur‘oni Karim. O‘zbekcha izohli tarjima. Tarjima va izohlar muallifi Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. – T.: Sharq, 2008. – B. 461. (Qur‘oni Karimning barcha sura va oyatlari shu tafsirda olingan bo‘lib, keyinfi o‘rinlarda faqat sura nomi, oyat raqami va sahifasi ko‘rsatiladi).

⁴ “Oli imron” surasi, 190-oyat. – B. 72.

⁵ “Ra‘d” surasi, 3-oyat. – B. 249.

⁶ Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati, 1-tom. – T.: Fan, 1983. – B. 279–280.

bobida ko'ngilga "oshufta hol (parishonhol) musofir" nomini bergani, bu bobda qalb o'ziga makon, Vatan izlashi esa bu fikrning yana bir isbotidir...

"Hayrat" kategoriyasining binarligi, bizningcha, hayratning voqe bo'lishidan to qabul qilinishiga qadar bo'lgan jarayonni qamrab oladigan badiiy-estetik hodisa bo'lib, hayratning voqe bo'lishi, ijodkor ruhiyatida sintezlanishi, badiiy asarga ko'chishi va o'quvchi ong-qalbidagi in'iko topishining natijasi ham, albatta, hayratdir. Shu bilan birga, hayratning qabul qilinishida ham kamida ikki daraja bo'lib, "Nasoyim ul-muhabbat"da zikr qilingan avliyulloh shayx Zunnun Misriy buni avom va xos hayratlariga ajratadi. Z.Misriyga ko'ra, avom hayrati – bu *"ilhod-u zalolat hayrati"*⁷ (*"ma'rifatni anglamaslik"*) bo'lsa, "xos hayrati" tushunchasi ham ikki bosqichlidir: *"...Va yana biri xos hayratidur va ul hayrat ayondadur va topmoqdur va ham oning so'zidur: avval uzulmak va qo'shulmoq va oxir ne uzulmak va ne qo'shulmoq"*⁸.

Bunda *"uzulmak"* – zohirdan voz kechishni, *"qo'shulmoq"* – iymon baquvvatligi, bardamligi, nafsni jilovlash, Yaratgan rahmatiga noil bo'lish, o'y, so'z va amal uyg'unligini anglatadi. Bu holat ko'p jihatdan Alisher Navoiy "Lison ut-tayr" dostonida ta'riflangan Ma'rifat vodiysidagi hayotga o'xshaydi...

"Xos hayrati"ning *"oxir ne uzulmak va ne qo'shulmoq"* maqomi esa farqsizlik (Istig'no vodiysi) va hayratga singib ketish bo'lib, buni so'z bilan tushuntirish qiyin. Bu – Alisher Navoiy orzu qilgan ko'ngilning o'z xojalik maqomida sobit turishi, nafsning butkul yiqilishi, odamzot ruhining Yaratgan qudrati bilan birlashib ketishi, qalbning chin ma'noda hukmdor bo'lishi, insonning tom ma'noda hayratga erishishidir...

"Hayrat ul-abror" dostoni "Uch hayrat" bo'limining jahon falsafasi, dunyo va o'zbek adabiyoti aspektidagi tadqiqimiz badiiy adabiyotdagi hayrat fenomeni alohida badiiy-estetik kategoriya, **hissiyot** va **hayronlik**, **tafakkur** va **taajjub**, **haqiqat** va **hayrat munosabatlaridan** iborat yagona konseptual falsafiy-badiiy tizim ekanini ko'rsatdi. Alisher Navoiyning "Uch hayrat" konsepsiyasi, bizningcha, har bir shoir ijodiy shaxsiyatidagi hayrat holini aniqlash va bu badiiy-estetik darajani belgilashning asosiy mezon-indikator, etaloni bo'la oladi.

"Uch hayrat" konsepsiyasi asosida "hayrat" (hayronlik, taajjub, lollik) tushunchasini hissiy, aqliy va ilohiy bilim nazariyalaridagi "bilish" tushunchasining muqobili sifatida ilmiy muomalaga kiritish mumkin. Shulardan kelib chiqib, Alisher Navoiy asarlaridagi hayrat konsepsiyasi asosida **"tuyg'ular hayronligi"**, **"tafakkur taajjubi"**, **"ma'rifat hayrati"** tizimlaridan iborat "Uch hayrat" badiiy-estetik formulasi ishlab chiqildi. Bunga ko'ra, "hayrat" kategoriyasi tarkibiy qismlarining nazariy-estetik chegaralarini shartli ravishda: a) **"tuyg'ular hayronligi"**da – "yaralish" va "bilim"; b) **"tafakkur taajjubi"**da – "bilim" va "ma'rifat"; v) **"ma'rifat hayrati"**da – "ma'rifat" va "abrorlik" ("almiyoq"dagi muqaddas ahdga sadoqat), deb belgilash mumkin.

⁷ Alisher Navoiy MAT. O'n yettinchi tom. Nasoyim ul-muhabbat. – T.: Fan, 2001. – B. 24.

⁸ O'sha manba. – B. 24.

Bizningcha, **“tuyg‘ular hayronligi”** tushunchasi – borliqni idrok etishning birlamchi vositalari sanalgan ko‘rish, eshitish, sezish hosilasi o‘laroq yuzaga keladigan hayronlik holatini; “tafakkur taajjubi” – har qanday mo‘jiza va uning sabablarini tafakkur bilan anglash, yaratq vositasida Yaratgan qudratiga iymon keltirishni; “ma’rifat hayrati” – Yaratganni ma’rifat bilan bilishni anglatadi.

“Tuyg‘ular hayronligi” badiiy-estetik kategoriyasining tarkibiy qismlarini shartli ravishda: a) **“hissiyot hayronligi”** (ijodkor ko‘nglidagi hissiy taajjublar, sezgilar mahsuli bo‘lgan hayronlik); b) **“ojiz gangish”** (ijodkorning hissiyotlari ichra sarson-sargardonligi, fikrni ifodalash va so‘z aytishdagi adashishlari); v) **“taslimlik”** (ko‘ngil o‘zining zaif, kuchsiz bir yaratq ekanini bilishi, ojizligini tan olib, iymonga yuzlanishi) tarzida ilmiy tasniflash o‘rinlidir.

“Tafakkur taajjubi” badiiy-estetik kategoriyasining tarkibiy qismlari shartli ravishda: a) **“bilim taajjubi”** (aql-idrok bilan anglangan bilimlar taajjubi); b) **“yolg‘izlik parishonligi”** (botiniy o‘zgarishlar-yangilanishlar bois parishon holga tushish, qalb bilan yolg‘iz qolish); v) **“o‘zini izlash lolligi”** (ko‘ngil yaratq sifatida Yaratgan halqasida o‘z o‘rnini izlashi); g) **“ibrat taajjubi”** (yaratqilarga ibrat nazari bilan qarash, mohiyatni anglash); d) **“salimlik”** (qalb salomatligi); y) **“mo‘min banda taajjubi”** (nafs bilan kurash taajjubi) tarzida ilmiy tasniflandi.

“Ma’rifat hayrati” badiiy-estetik kategoriyasining tarkibiy qismlari shartli ravishda: a) **“obidlar hayrati”** (poklik, rostlik, hayo, taqvo va ixlos hayrati); b) **“zokirlar hayrati”** (tazakkur va ilm hayrati); v) **“muslimlar hayrati”** (taslimlik va salimlik hayrati); g) **“oriflar hayrati”** (ilohiy muhabbat, universal bilim egalari, oriflar, hakimlar, olimlar hayrati); d) **“abrorlar hayrati”** (“al-miysoq”da bergan ahdiga sadoqatli insonlar hayrati) tarzida ilmiy tasniflash mumkin.

Qur’oni Karim oyatlarida belgilangan, Muhammad alayhissalom hadislarida ko‘rsatilgan, Fariduddin Attor, Alisher Navoiy, Muhammadrizo Ogahiy va boshqa ulug‘ mutafakkirlar asarlarida Yaratganni tanish, o‘zlik va borliqni anglashning yo‘li sifatida ifodalangan ma’rifat va hayrat fenomenlari tom ma’nodagi katta shoir E.Shukur she’riyatidagi syujet, obraz, kompozitsiya, uslub, detal, ramz singari badiiy komponentlar tabiatini, shoir badiiyati konsepsiyasini ham belgilaydi. Inson hayrati, shoir ta’riflaganidek, “xokni kimyo etadi”gan, ya’ni xuddi tuproq zarralari oltinga aylanganidek, xokisor odamzot qalbidagi ezgu kuchlarni birlashtiradigan, odam va olamni yangilaydigan qudratga ega:

*“Aqlning shiddati, tuyg‘u g‘ayrati –
Dunyoni yangilar Inson hayrati...”*⁹

Shoir she’riyatidagi yo‘l, soya, dala, daraxt, suv, tosh, daryo, lahza va boshqa metaforalar bir tizimga keltirilsa, insonning yaxlit badiiy obrazi gavdalanadi va bu Inson obrazi mumtoz lirikamizga xos hayrat tushunchasiga asoslanishi ma’lum bo‘ladi. E.Shukur asarlari “Uch hayrat” badiiy-estetik formulasi asosida tahlil qilinganda, **sharq-islom ma’rifatiga** asoslangan “hayrat” kategoriyasi binarligi: a) **“Yaratganning**

⁹ Eshqobil Shukur. Ko‘z yumib ko‘rganlarim. – T.: Akademnashr, 2013. – B. 60.

yakkaligini anglash va hamd bilimi”; b) “niyat va ixlos bilimi”; v) “ibodat, duo va zikr bilimi”; g) “umid va orzu bilimi”; d) “taqdir va tadbir bilimi” singari juft bilimlar hayratida o‘z ifodasini topgani oydinlashdi. Jumladan, E.Shukurning “Nasoyim ul-muhabbat”ga sayr” turkumi¹⁰dagi she’rlar va boshqa munojotlarda mustahkam e’tiqod va chuqur bilim bilan najot so‘ralayotgan Zotning mutlaq buyukligi, kosmos-u xaosning Yakka-yu Yagona Egasi ekanini, ayni shu Xoliq (mutlaq vujudga keltiruvchi) va Bori’ (yo‘qdan bor qiluvchi) qudrati bilan nomavjudlikdan mavjudlik ajratib olingani tarannum etiladi:

*“Borliq ham yo‘qlikda mutloq o‘zingsan,
Yo‘qdan bor etuvchi xalloq o‘zingsan”.*

Shoir bunda sharq-islom adabiyoti an’analariga izchil amal qilib, Allohning go‘zal ismlari, sifatlari va bandalik murodi bayonini uyg‘un olib borarkan, avvalo, taslimlik bilan “Ojizman, vasfingga biror so‘zim yo‘q, bir qutlug‘ so‘z ichra hali o‘zim yo‘q”, ya’ni Yaratganning ta’rif-u tavsifini keltirishga inson imkoniyatlari ojiz, yuksak ma’naviy maqom – Alloh vasfiga erishish uchun ham “bir qutlug‘ so‘z” (Alloh taoloning muborak ismlari) ichida bu Qutlug‘ ism bilan birlashish, Oliy Men ichida o‘z “men”ini topish lozim, deydi-ki, bu hayrat asosini bir so‘z bilan “Yaratganning yakkaligini anglash va hamd bilimi” sifatida ifodalash mumkin.

Shoir asarlaridagi **niyat bilimi hayrati** “Qadr kechasi” xronotopi, namozshomgul, qaldirg‘och kabi obrazlarda, **ixlos bilimining** poetik sintezi “banda – pir//homiy//yo‘lboshchi – Yaratgan” va “banda – Yaratgan” ma’rifiy tizimlarida, “O‘ttiz ikki tish dostoni”¹¹dagi rahnamo-qahramon, pir-solik, murshid-murid munosabatlari ifodasida namoyon bo‘ladi. Deylik, “Anjuman” she’ri¹²da “so‘zlar qiyg‘os gullar bu kecha” satrida qalbdagi zikrlar so‘zga evrilishi, “bir jom obi zamga aylanar sabr” metaforasida tiyilgan nafs halovati qalbga singishi, “yashillanib ketar qarri daricha” ramzida ko‘hna tuyg‘u – tavba qilish ehtiyoji o‘zini bildiradi. Shoir nazdida ibodat qilayotgan inson – daraxt, atrofi esa daraxtzor. Bu bog‘ga “anjuman zamoni” (o‘zi bilan O‘zi suhbat qurish, yaratilgan o‘z Yaratuvchisiga qalbini ochish, izhori dil etish fursati) yetgan. “Bu muslim daraxtlar esa jannatdan qiyos”, boisi “Tangri qachonlardir tilingga ekan so‘zlar gullayotir qiyg‘os va qiyg‘os”. “Qadr kechasi” bilimi poetik sintezlangan yana bir she’r¹³da esa niyat bilimi taajjubi o‘z mustajobi (ko‘ngildagi o‘zgarish, natijasi) bilan namoyon bo‘ladi:

*“Qor edim, qalovim topildi, yondim,
Suv edim, olovim topildi, yondim.
Qadr kechasida seni do‘st tutib,
Zor edim, tilovim topildi, yondim”.*

¹⁰ Eshqobil Shukur. Yashil qushlar. – T.: Yozuvchi, 1995. – B. 45–50.

¹¹ O‘sha manba. – B. 46.

¹² O‘sha manba. – B. 4.

¹³ Eshqobil Shukur. Hamal ayvoni. – T.: Sharq, 2002. – B. 257.

Ibodot, duo va zikr bilimi hayrati mahsuli bo‘lgan “Yassaviy” she‘ri¹⁴da tirilish, uyg‘onish hayrati – so‘z, oh urish va yig‘i kontekstlarida kelarkan, *ibodat so‘zi* – “unut oyatlar”ning “yashil yalov kiyishi” (uyg‘onish sururi qalbni zabt etishi, ko‘ngilga poklanish bayrog‘i qadalishi)da; *ibodat ohi, nolasi, o‘tinchi* – “muzlab yotgan oy”ning “jizillab pishish”i (qalbdagi ibodat istagi, poklanish ehtiyoji harakatga kelishi)da; ibodat yig‘isi – ko‘zyoshlardan og‘irlashgan joynamozning Nuh kemasiga (qutilish, omon qolish, salomat bo‘lish) aylanishi (qalb kemasining yagona yo‘nalish – qiblani topishi, qalb o‘z Yaratuvchisiga yuz burishi)da namoyon bo‘ladi. “Yo‘qlov” she‘ri¹⁵da esa “jon ibodati” hayratiga “ko‘ngil risolati” deya ta‘rif berilarkan, bu xuddi ko‘l sirti yoki ko‘zguga tushgan nurning qayta akslanishidek tasavvur uyg‘otadi. “Ibodot sururi”¹⁶da ibodatdagi qalb “ozodlikka chiqqan oy”, (ilohiy quvvatning harakatga kelishi, ko‘ngil ozod(a)ligi), “rizvon qushlari” (o‘z missiyasini anglab, o‘z mohiyatiga yaqinlashayotgan qalb) timsollarida (“*Qamalgan qamarlar, endi ozodsiz, // Ilohiy qanotlar qulluq, assalom. // Rizvon qushlariday muharram, shodsiz, // Juft-juft kelinlarday aylangiz salom*”) ifodalanadi.

Umid va orzu bilimi hayrati E.Shukur poetikasida ham insonni inson, bandani banda qiladigan eng muhim ma‘rifiy asoslardan biri sifatida talqin etiladi. Xususan, “Umid kechasi” she‘ri¹⁷da bu ezgu xabar (“*turnalar sukutning bag‘rini yordi*”), qalb yangilanishi (“*qizlar qabog‘ida yondi qizg‘aldoq*”) va ko‘ngil ovozi (“*chumchuqlar chug‘urin yutib yubordi, ko‘kragimda singan momaqaldiraq*”), “Najot” she‘ri¹⁸da ayozli biyobonda o‘tov sari odimlayotgan cho‘pon obrazi holatida juda go‘zal ifodalanadi. “Orzu” she‘ri¹⁹da esa “insonni insondek ko‘rmak orzusi”ga uch ta‘rif beriladi: a) “*daholar ko‘ngliga cho‘g‘ tashlagan sir*”; b) “*osmon maktublarin mangu mavzusi*”; v) “*azal zulmatlarin kesib o‘tgan nur*”. Bunda: “daholar” – payg‘ambarlar, aziz avliyolar, allomalar; “cho‘g‘” – ilm-hikmat; “osmon maktublari” – muqaddas kitoblar; “azal zulmatlarin kesib o‘tgan nur” – bani odam yaratilmasdan avval “al-miyoq”da yozilgan, odamzot umr bo‘yi izlab yashaydigan hidoyat, poklik, tafakkur va ma‘rifat yog‘dusi timsollaridir.

E.Shukur “Nasoyim ul-muhabbat”ga sayr” turkumidagi “Uch ilm hikmati” she‘ri²⁰da Zunnun Misriyning uch safariga oid hikmat “sultonlik <> gadolik = ilm”; “inson <> oxirat = tavba”; “hayronlik <> jon qushi = muhabbat”; “ikki jahon <> bir dil = haqiqat” badiiy kontrastlarida ifodalanadi...

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Hayrat” olam va odamni estetik idrok qilish va badiiy aks ettirishning birlamchi sharti sifatida**”, deb nomlangan bo‘lib, “Eshqobil Shukur “hayrat”larida ruhiyat zalvori” hamda “*Ijodkor tafakkuri va o‘zlikni anglash hayrati*” fasllaridan iborat. Mazkur bo‘limda “Uch hayrat” badiiy-estetik

¹⁴ Eshqobil Shukur. Yashil qushlar. – T.: Yozuvchi, 1995. – B. 51.

¹⁵ O‘sha manba. – B. 51.

¹⁶ Eshqobil Shukur. Hamal ayvoni. – T.: Sharq, 2002. – B. 51.

¹⁷ O‘sha manba. – B. 186 – 189.

¹⁸ Eshqobil Shukur. Sochlari sumbul-sumbul. – T.: Adabiyot va san‘at, 1988. – B. 48–49.

¹⁹ Eshqobil Shukur. Ko‘z yumib ko‘rganlarim. – T.: Akademiya nashr, 2013. – B. 11.

²⁰ Eshqobil Shukur. Hamal ayvoni. – T.: Sharq, 2002. – B. 209.

formulasi asosida E.Shukur ijodi tahlil va tadqiq qilinish, “hayrat” kategoriyasi shoir ijodiy shaxsiyatida olam va odamni estetik idrok etish va badiiy aks ettirishning birlamchi sharti sifatida namoyon bo‘lgani, olam va odamni badiiy idrok etishda ijodkor subyekti “hayrat” kategoriyasi bilan serkulyar munosabatda ekani ilmiy isbotlangan. Shoir ijodiy shaxsiyatidagi “Uch hayrat” ko‘lami ham shu asosda belgilangan. Unga ko‘ra, shoir asarlaridagi “Uch hayrat” badiiy-estetik formulasining birinchi tizimi – **hissiyot va hayronlik munosabatlari** quyidagi shartli-yangi istilohlar asosida tasniflangan: a) **“tuyg‘ular hayronligi”**; b) **“iztirob hayronligi”**; v) **“tushkunlik hayronligi”**; g) **“taslimlik”**.

Bunda **“tuyg‘ular hayronligi”** holati olam-odam haqidagi ilk bilimlar, ilk savollar ifodasi bo‘lgan “yashil tuyg‘ular”, “tuyg‘u elchisi”, “tuyg‘udosh”, “qanotli tuyg‘ular”, “Tuyg‘u poytaxti”, “tuyg‘u arzandasi”, “sabil tuyg‘u”, “mazlum tuyg‘ular,” “gullagan tuyg‘u”, “unutilgan tuyg‘ular” va hakazo obrazlarda namoyon bo‘ladi. Jumladan, **“yashil tuyg‘ular”** – tirik qalb, musaffo ko‘ngil hayronligi (“*Titroq novdalarda uyg‘onar hayot // Sarg‘aygan qor kabi erib bitar dard // Yashil tuyg‘ulardan chayqalasan shod // Fevral o‘tib borar, yaqinlashar mart*”²¹); **“tuyg‘u elchisi”** – she‘r odamlari (“*G‘oyib daryolarni men Sizdan topdim // Kuylovchi tog‘larni Sizdan izladim...*”²²); **“tuyg‘udosh”**– hayrona yarimko‘ngil izlayotgan butunlik (“*Uning tomirlari gullab boradi // Devorlari nurdan tiklanib borar // Oching chehralarni, oching ko‘zlarni // Boylangan tillarin oching so‘zlarning...*”²³); **“gul tuyg‘ular”** yoki “gullagan tuyg‘u” – ilk hayrat kurtagi (“*Ajab saodatli tunlar bag‘rida // Ko‘nglim yulduzlarin sochmoq istadim // Hayot gullayotgan mehr bog‘ida // Sizga yuragimni ochmoq istadim...*”²⁴) ifodalangan yangi badiiy topilmalardir.

“Iztirob hayronligi” tushunchasi esa hayronlik asnosida iztirobni anglash, dard-u hasrat zamiridagi poklanish umidini anglatadi. Shoir asarlaridagi “iztirob tovushi”, “iztirob rangi”, “iztirob guli”, “gullayotgan qayg‘u”, “qayg‘u nuri”, “qayg‘u chimildig‘i”, “qayg‘u guli”, “qayg‘ulim”, “tirik qayg‘u”, “qayg‘u uyi”, “dilbar qayg‘u”, “oydin qayg‘u” singari obrazlar iztirob ulg‘aytirayotgan, o‘zini o‘zi parvarishlayotgan qalb tebranishlaridir.. Iztirob hayronligining yana bir muhim ko‘rinishi – bilimni izlashda namoyon bo‘ladi. Shoir asarlarida bu izlam gohida **“qadimiy ruh”** (“*chorladim qadimiy muqaddas ruhni, yuragimga qaytdi quvg‘indi kalom*”²⁵) yoki “*dil qayda, gul qayda, qayda guliston? Pir qayda, ruh qayda, qayda ruhiston*”²⁶); **“ismsiz daho”** (“*Janlarga chaqirdim sokin qo‘shiqni, o‘zing madadkor bo‘l ismsiz daho!*”²⁷) yo “*Bolaning ichida yashaydi daho*”²⁸); **“ovoz”** (“*Sening ovozingni chorlayapman men, olamni g‘amlardan qutqarmoq uchun. Qani, sening*

²¹ Eshqobil Shukur. Hamal ayvoni. – T.: Sharq, 2002. – B. 41.

²² O‘sha manba. – B. 313.

²³ Eshqobil Shukur. Sochlari sumbul-sumbul. – T.: Adabiyot va san‘at, 1988. – B. 56.

²⁴ Eshqobil Shukur. Hamal ayvoni. – T.: Sharq, 2002. – B. 313.

²⁵ Eshqobil Shukur. Yashil qushlar. – T.: Yozuvchi, 1995. – B. 74.

²⁶ Eshqobil Shukur. Hamal ayvoni. – T.: Sharq, 2002. – B. 128.

²⁷ Eshqobil Shukur. Yashil qushlar. – T.: Yozuvchi, 1995. – B. 77.

²⁸ O‘sha manba. – B. 235.

ovozing?..²⁹” yoki “*ichimda g‘ichirlar bir qo‘shiq*”³⁰) kabi obrazlarda, ayniqsa, “Oyding qayg‘u” she‘ri³¹ dagi “*qizg‘in shafaqlarni kiygan kunsuluv*”, “*daryo sochlarini chaygan tunsuluv*”, “*yalpizlar sutidan to‘ygan gulsuluv*”, “*shokila-shokila yongan dursuluv*”, “*toshlar chanqovuzin chalgan kuysuluv*”, “*o‘ttiz xil ko‘ylagin ilgan oysuluv*”, “*qizg‘in tomirlarim sochgan jonsuluv*” evfoniyalarida yaqqol namoyon bo‘ladi.

“Ko‘ngil qushlari”³² she‘rida o‘tkinchi hissiyotni ifodalovchi – “**devona shamol**” (begona ayol) obrazi bilan ko‘zlarga qamalgan “**hayron tushlar**” va qalbda donlayotgan “**chip ko‘r qushlar**” badiiy tasvirlari o‘zaro zidlikda keladi. Bunda “hayron tushlar” va “chip ko‘r qushlar” – qalb quvvati, ruhiy bilimni ifodalash bilan birga, hali bu quvvat inertlik holatidan chiqq olmayotgani, turg‘unlikdan qutilish uchun bilim kuchsizlik qilayotgani, qalb quvvati hali to‘la harakatga kelmaganini ham anglatadi.

“**Tushkunlik hayronligi**” holi – shoir ijodiy shaxsiyatidagi “ruhiy isitma”, bir muddat kechgan afsurdahollik, o‘zini ozod ko‘rish istagi, iymonni yemiruvchi nafs bilan kurash ifodasi bo‘lib, bu ijodiy-ruhiy jarayonning o‘ziga xos motivi – fikran dovdirash (dovdirash, tong qolish ham hayratning bir bosqichi!) holati “Tanazzul”³³, “Ikki dunyo oralig‘idagi qofiyasiz tushlar”³⁴ kabi turkumlardagi she‘rlarda ham namoyon bo‘ladi. “Men” tajribasi”da insonni – inson, shaxsni – shaxs sifatida belgilaydigan “men” ne‘matiga “hayotning shoh tomiri”³⁵, deya ta‘rif berilarkan, tuyg‘ularini boy bergan, shaxs sifatidagi qiyofasini yo‘qotgan kimsa fojiasi – millat fojiasini ham timsollashi mumkinligiga ishora etiladi.

E.Shukur ijodiy shaxsiyatidagi **taslimlikning** birinchi belgisi – she‘rlarida munojot (najot umidi, tavba, Yaratganga iltijo) leytmotivi paydo bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Munojot – bu o‘z o‘zligini anglash, tan olish, hidoyat yo‘lini so‘rash, duo va, albatta, ibodat demak. Uning yaqqol timsollaridan biri esa **majnunol obrazidir**. Shoirning “*Men qo‘rqaman majnunolning arazlashidan...*” she‘ri³⁶da najot so‘ralgan iltijo obrazi ham majnunol, ham daraxtning titroq va yig‘i bilan chalayotgan “Munojot” kuyi obrazida jonlantiriladi. Yana bir she‘r³⁷da esa “*Mening qo‘lim ochiq, qo‘llarim ochiq*” satri har ikki qatorda takror bo‘lib kelishi ham itoat, duo, iltijo ramzidir.

“Qalb manzaralari”³⁸ munojoti mazmunan Alisher Navoiyning “Ilk hayrat konsepsiyasi”ga yaqin. Manzumada ilhom ham, ilohiy orom ham, quvvat ham, siyrat

²⁹ Navqiron davra. Eshqobil Shukur. Yurakni o‘rganish. – T.: G‘afur G‘ulom, 1984. – B. 189.

³⁰ Eshqobil Shukur. Yashil qushlar. – T.: Yozuvchi, 1995. – B. 44.

³¹ Eshqobil Shukur. Sochlari sumbul-sumbul. – T.: Adabiyot va san‘at, 1988. – B. 57.

³² Eshqobil Shukur. Yashil qushlar. – T.: Yozuvchi, 1995. – B. 54.

³³ Eshqobil Shukur. Hamal ayvoni. – T.: Sharq, 2002. – B. 228.

³⁴ Eshqobil Shukur. Yashil qushlar. – T.: Yozuvchi, 1995. – B. 62–63.

³⁵ Eshqobil Shukur. Tunggi gullar. – T.: Yosh gvardiya, 1989. – B. 34.

³⁶ Eshqobil Shukur. Sochlari sumbul-sumbul. – T.: Adabiyot va san‘at, 1988. – B. 16.

³⁷ Navqiron davra (to‘plam). Eshqobil Shukur. Yurakni o‘rganish. – T.: G‘afur G‘ulom, 1984. – B. 196–197.

³⁸ Eshqobil Shukur. Yashil qushlar. – T.: Yozuvchi, 1995. – B. 71–73.

ham, hayrat ham faqat va faqat Yaratgandan, Bir-u Bor Zotdan, Olamlar Rabbidan so‘raladi:

*“Yo Rabbim! Bu dilga o‘zing quvvat ber,
Bu hayron suvratga subhon siyrat ber.
Yibording... Qaytmoqqa o‘zing navbat ber,
Yo Rabbim! Xayr qil – hayrat ber, hayrat ber”.*

Munojotning ikkinchi qismida *“Qulingman, men seni bilmog‘ istaram”* satri anafora (takror) sifatida qo‘llanilarkan, dunyoni, ruhini, dilini va “ul oy”ni salomat ko‘rmoq istagi bo‘y ko‘rsatadi. Bunda ruh salomatligiga yo‘l qo‘ymayotgan iskanja – dil va tilning bir qutbga kelmagani (yagona o‘zanga birlashmagani) qaqnus bolasiga mengzaladi. “Qamalda qolgan oy” obrazi esa bu aybdorlik hissini o‘quvchi ko‘z o‘ngida jonlantiradi. Munojotning uchinchi qismidagi **“Ay dil”** murojaati anafora qilib olingan bo‘lib, uning tong tasviri ichida kelishi qalbda yangi uyg‘onish pallasi boshlanganidan darak beradi:

*“Ay dil, hushyor bo‘lg‘il, sahar vaqti bu,
o‘z ich-u toshingga safar vaqti bu”.*

E.Shukur ijodiy shaxsiyatidagi **“Uch hayrat” formulasining tafakkur taajjubi** va **ma‘rifat hayrati** komponentlarini ifoda etgan faqat qalbgga yuzlanish, yaratilqlar ibrati, alomat-belgilarni anglash, ilm-ma‘rifat bilan salimlik, muslimlik, mo‘minlik maqomiga intilish, o‘y, so‘z va amal uyg‘unligini anglash hollarini **“yolg‘izlik parishonligi va mensizlik lolligi”**, **“ibrat va tafakkur taajjubi”**, **“salimlik va muslimlik hayrati”**, **“mo‘min banda hayrati”**, **“ilm va ma‘rifat hayrati”** shartli istilohlari bilan ifodalash mumkin.

Shoir asarlaridagi **“tafakkur taajjubi”** kategoriyasi, avvalo, milliy folklor va qadim turkiy tildagi yozma yodgorliklarni o‘rganish natijasida ko‘rinish bergan. Bunda milliy folklor bilimi – baxshiyona so‘z qo‘llash mahorati, sodda-tabiiy tasvirlar izchilligi va ko‘hna obrazlar yangilanishida namoyon bo‘ladi. Xususan, *“Ahay-aha-hay...”*, *“Ho‘o‘o‘sh-ho‘o‘o‘sh...” kabi an‘anaviy qaytariqlar*, *“Sochala sochingiz, sochala”*, *“Cho‘jalari cho‘lda qolgan boy bola”*, *“Voy, Mengim-a, sho‘r Mengim/ Uvv!.. Uv!!!”* singari xalqona aytimlar ham buni dalillaydi. “O‘zbek otaning 43-yildagi faryodlari”³⁹da azador ota faryodining *“To‘lmay ketgan oy bolam!”*, *“Oqmay ketgan soy bolam!”*, *“Bo‘lmay qolgan to‘y, bolam!”* yoki *“Xalq ohangida”*⁴⁰dagi *“Oybulutnng orasidan oyday kelinlar kelar/Kunbulutning orasidan kunday kelinlar kelar”* singari poetik ifodalarda ham xalq og‘zaki ijodi bilimi yaqqol bo‘y ko‘rsatadi.

Shoir asarlarida oy, quyosh, yulduz, osmon, falak, samo mifik obrazlari ishtirok etgan yangi so‘zlar, turkum poetik obrazlar, betakror chizgilar, ramz istiora va metaforalar mag‘zida bobomeros-momomeros astronomik bilim, qutblar, fasllar almashinuvi, vaqt ichida o‘lib qayta tiriluvchi tabiatga mos inson ko‘nglining o‘zini o‘zi yangilab borishi timsoliy ifoda etilgan. Ko‘plab she‘rlarda uch olam bir butun

³⁹ Eshqobil Shukur. Tunggi gullar. – T.: Yosh gvardiya, 1989. – B. 5–6.

⁴⁰ Navqiron davra (to‘plam). Eshqobil Shukur. Yurakni o‘rganish. – T.: G‘afur G‘ulom, 1984. – B. 198.

badiiy idroklanishi, inson obrazi uch olam miqyosiga olib chiqilishi, ko'ngil fenomeni uch olam ilmidan bahramand maqomga ko'tarilishi zamirida ham folklor bilimining poetik sintezi mujassam:

*“Qaqragan cho'l edim, chin daryo bo'ldim,
Bo'm-bo'sh osmon edim, o'zimga to'ldim,
Yerga jilg'alarni yetaklab keldim...”*⁴¹

“Oraliqlarda” she'ri⁴²ni ko'p jihatdan “Uch hayrat”ning **inson qalbining Yaratganni tanishi**, bu bilimdan hayratga tushish holining o'zgacha bir talqini deyishga asos bor. Aro yo'lda qolib ketayotgan, Ulkan bilimga birlasha olmayotgan qalb “ko'nglim suvaydosi” (suvaydo – yurakdagi qora nuqta, qora dog', nafsning zohiriy shakli), “ko'zim sayguli” (ko'zni quvnatuvchi saylab olingan gul – bu ham zohir), “kuygan ustixonda o'stirgan gulim” (zohir zamirida bo'y ko'rsatayotgan botin) kabi ta'riflanarkan, Ulkan bilim ikki xabarchi ramz (qaldirg'och va turna) va “sukunat bulbuli” timsolida ifoda etilishi butun olam O'z Rabbiga zokirlik-shokirlik maqomida ekanini anglagan Inson qalbining yaratilgan gultoji bo'laturib, sukut saqlayotgani, o'z holidan, o'z maqomidan, o'z bilimidan taajjubligini ifodalaydi.

Qadim turkiy tildagi yozma yodgorliklar haqidagi bilim – “Hun ayoli haqida qo'shiq”, “Eng qadimgi qo'shiq”, “To'nyuquq”, “Hun ibodati”, “Avralgan ilon”, “Mohiyat”, “Osmon – bu muhabbat...” kabi she'rlari, “Qadimiy bitiktoshlarga yozuvlar”, “Qadimgi daftar yoxud unutilgan ohanglar” turkumlaridagi “qora daryo”, “Cho'ng Qoya”, “bug'ujon”, “kiyikning o'g'li”, “Yashil qoya”, “Qizil qoya”, “arazlagan yo'lbars”, “Mag'astvi”, “anglanmagan Bitik”, “quyoshga yozilgan bitik” kabi motiv va obrazlarda namoyon bo'ladi.

Yolg'izlik parishonligi va mensizlik lolligi – ko'proq ijodkorning jamiyatdan uzilishi, davralardan o'zini tortishi, qalbi bilan yolg'iz qolishi, o'z holiga o'ziga hayron qolishi rakursida ko'rinadi. Ko'p she'rlarda **yolg'izlik holi** va “**parishonlik**” tushunchasi binar kelishi yangi-yangi metaforalarga asos bo'ladi. “Parishonman...” she'r⁴³ida jon (tana) – jahon (jamiyat) – shon (o'tkinchi hoy-u havas, kibr, nafs) qutbida sarson-u hayron qalb o'ziga xilvat makon izlashi, shoir ko'plab she'rlarida qayta-qayta o'z “men”iga murojaat qilishi (“O', yana o'shami... O'sha... Eshqobil”; “Qushdan ildiz oldim, qanotni guldani – Eshqobil emasman endi men...”; “Qaytingiz, qarg'algan gumroh ayollar – Eshqobil yerda yo'q...”; “Che Gevara qaytdi, Robin Gud qaytdi – Eshqobil qaytmadi hamon urushdan...”) ko'p uchrashi ham tafakkur va ma'rifat hayrati bilan o'zini angalayotgan qalb haqiqatlaridan darak beradi. “Qaldirg'ochning ko'z yoshlari” turkumida esa “Men”, “Meni”, “Menga”, “Menda”, “Mendan” anaforalarida “men” qaysi shaklda kelmasin, barchasida shoir ijodiy shaxsiyatidagi fitrat, tafakkur, ma'rifat va hayrat tushunchalari yengilmas kuch sifatida namoyon bo'ladi:

“Men

⁴¹ Eshqobil Shukur. Ko'z yumib ko'rganlarim. – T.: Akademnashr, 2013. – B. 6.

⁴² Eshqobil Shukur. Sochlari sumbul-sumbul. – T.: Adabiyot va san'at, 1988. – B. 59–60.

⁴³ Eshqobil Shukur. Ko'z yumib ko'rganlarim. – T.: Akademnashr, 2013. – B. 11.

*Maxluqdan malaklik izladim ko'proq,
Qoshimda Insonday gulladi tuproq,
Qo'lim qanot bo'ldi, ko'zlarim chiroq...*"⁴⁴.

Tafakkur taajjubi" va **"ma'rifat hayrati"** badiiy-estetik kategoriyasining asosiy qismlari bo'lgan *"ibrat va tafakkur taajjubi"*, *"salimlik va musulmlik hayrati"*, *"mo'min banda hayrati"*, *"ilm va ma'rifat hayrati"* ham o'limdan keyingi mangu hayotdan munosib o'rin topish, buning uchun Yaratgan belgilagan qoidalarga amal qilish, yaratqilardan ibrat olish, ilm va ma'rifat bilan salimlik, musulmlik, mo'minlik maqomini egallashni nazarda tutadi. Bu ba'zida **niyat va xayol** (*"Mendan bu dunyoga bir niyat meros, // Seni xudo suysin, obod bo'l mangu"* (**"Tilak"**⁴⁵); *"Men farzandi edim buyuk xayolning, // Otam xayol edi, onam ham xayol..."* (**"Zamonda zamonsiz"**⁴⁶); *so'z va qo'shiq* (*"Men so'z deb yayradim, so'z deb qaqshadim, // Yurakni o'rta qo'yib yashadim. // Yuragim so'zlarning dasturxonidir..."* (**"Mamatraim baxshi"**⁴⁷); *"San iloh javhari, ma'ruf tuz, ay so'z, // Ishq ipiga dilni bir-bir tiz, ay so'z. // Keldik. Boshimizda qancha sinov bor, // San guvoh o'tarsan, o'zing – ko'z, ay so'z, // Osmondan kelgan ko'z o'zingsan, ay so'z. // ay so'z ... ay so'z... ay so'z..."* (**"Bu ko'ngul dashtini..."**⁴⁸) hayratlarida namoyon bo'ladi-ki, shoir ijodiy shaxsiyatidagi so'z hayratini alohida muammo sifatida o'rganish lozim.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **"Eshqobil Shukur metaforalari tizimida hayrat talqini"**, deb nomlangan. Bobning birinchi *"To'rt unsur" hayrati* faslida o'zbek adabiyotidagi "to'rt unsur" metaforalar tizimi E.Shukur ijodi misolida bir butun badiiy sistema sifatida tuproq, suv, havo, olov metaforalar tizimiga birlashtirilib, shu asosda "To'rt unsur" hayrati badiiy ramzlar strukturasi ishlab chiqilgan. *"Shoir lirik obrazlari, metafora va ramzlarda "hayrat" ifodasi"* sarlavhali ikkinchi faslda shoir asarlaridagi lirik obraz, metafora, ramz, lirik ifoda va individual uslub vositasida hayrat tushunchasi insonning o'z mohiyati – hayot mazmunini anglash, kognitiv idrok yo'li ekani ilmiy asoslab berilgan. Xususan, shoirning "Hayotga qasida" she'rida **tuproq** (*"yam-yashil ohanglar, "yam-yashil so'zlar", "xasta daraxt", "kuylayotgan toshlar", "loy jilvasi", "ishqning tobuti"*), **suv** (*"muzliklar kulgisi", "sariq daryolar", "muzlagan ovoz"*), **havo** (*"shamol yollari", "momoqaldiroq uyqusi", "oyning nikoh to'yi", "Nuh qaldirg'ochi"*), **olov** (*"parivash olov", "muhabbat otashi", "quyosh tuprog'i"*) tizimidagi obrazlar bir asarda jamlangani o'zbek she'riyatida uchraydigan kamdan-kam hodisadir. Shoir har bir yaratiqqa hayrat ko'zi bilan boqqani uchun ham *"shamolning moviy yollari"* timsolida tiriklik nafasi, ruhiy tozarish, Yaratgan va banda o'rtasidagi mehr rishtasini, *"momoqaldiroq uyqusi"* va *"muzliklar kulgisi"*da ruhiy sakinatni, chaqmoq hosil qilgan tasvirda so'zana palaklaridek bobomeros ilm uchqunlarini ko'radi.

⁴⁴ Eshqobil Shukur. Ko'z yumib ko'rganlarim. – T.: Akademnashr, 2013. – B. 6.

⁴⁵ Eshqobil Shukur. Hamal ayvoni. – T.: Sharq, 2002. – B. 166.

⁴⁶ Eshqobil Shukur. Ko'z yumib ko'rganlarim. – T.: Akademnashr, 2013. – B. 76.

⁴⁷ Eshqobil Shukur. Hamal ayvoni. – T.: Sharq, 2002. – B. 126.

⁴⁸ Eshqobil Shukur. Yashil qushlar. – T.: Yozuvchi, 1995. – B. 81.

Shoir ijodiy shaxsiyatidagi “To‘rt unsur” hayrati” badiiy ramzlar strukturasi asosan: a) **daryo** (yo‘l, chegara, vaqt, umr, hayot, ilohiy quvvat, rahmat, naf, ezgulik oqimi, poklanish, yangilanish, umid, niyat timsollari bo‘lgan “*ko‘zim daryosi*”, “*ko‘zda chayqalgan daryo*”, “*qumlar daryosi*”, “*yutilgan daryo*”, “*enamday daryolarim*”, “*oq daryolar*” ramzlarida, *daryo-sahro*, *daryo-ko‘lmak* kontrastida); b) **chashma** (qalb/ong/ruh yangilanishi) va baliq (halollik, poklik, iymon-e’tiqod); v) tomchi ko‘zyosh, shudring, shabnam, sumbula (iztirob-hijron); g) **yomg‘ir** (yolg‘izlik, hasrat, sog‘inch ko‘zyoshlari, hijron yig‘isi, xatoliklardan o‘kinch, Yaratgan marhamati, fayz-rahmati, rizq ne‘mati), **qor**, **qahraton**, **ayoz**, **yaldo tuni** (hijron, tushkunlik, inertlik, sustlik, xaos, o‘lim motivlari bilan birga kelib, inson/shaxs/etnos hayotidagi tanazzulni tamsillaydi) hayratlari hosilasi bo‘lgan turfa ramzlarda o‘z ifodasini topgan. Jumladan, daryo o‘zak ramzi, asosan, **yo‘l** (“*Bir yorga ko‘zimdan yo‘l bersam dedim, // Ko‘zim daryosida oqmadi hech kim*”⁴⁹); **chegara** (“*Begona sohillar chorladi bizni, // Ko‘zimizda daryo chayqalib turdi*”⁵⁰); **vaqt, umr, hayot** (“*Bu og‘och jasadlar, o‘tin tanalar, // Qumlar daryosida oqurlar qayon?*”⁵¹); **ilohiy quvvat oqimi** (“*Sen – daryo, sen – daryo, muazzam daryo, // Adashgan balig‘day qumlog‘da bu dil*”⁵²); **poklanish, umid, niyat** (“*Enamday daryolarim // Oq yuvib, oq taradi*”⁵³) timsollari bo‘lib kelsa, “*Begona*”⁵⁴ (“*Siz daryo, mayli, men cho‘l bo‘lsam dedim*”), “*Alpomish*” ohanglarida⁵⁵ (“*Suv edim saxtiyon sahro bo‘lmisham*”), “*Oppoq bulut kiyib...*”⁵⁶ (“*Tilimda daryo-yu, dilimda olov*”), “*Qor edim qalovim*”⁵⁷ (“*Suv edim, olovim topildi, yondim*”) kabi she‘rlarda daryo/suv va sahro/olov kontrasti bir halqa ichra o‘zaro ters qutb binarligida namoyon bo‘ladi.

E.Shukur asarlaridagi **osmon, oy, shamol** o‘zak ramzlariga birlashgan turli poetik obrazlar, ramzlar va istioralar – **havo metaforalar tizimini** tashkil qiladi. Xususan, osmon o‘zak ramzi bilan bog‘liq yangi so‘zlar, obrazlar, istiora va metaforalar, asosan:

a) “*yuqori olam*”, *ilohiy ma‘vo*, *yuksak cho‘qqi...* (“*Orzu*” she‘ri⁵⁸dagi “*insonni insondek ko‘rmak orzusi*”ga “*osmon maktublarin mangu mavzusi*”, deya ta‘rif berilishi, “*Bu ko‘ngul dashtini...*”⁵⁹dagi “*osmondan kelgan ko‘z o‘zingsan, ay so‘z*”, “*Ko‘risharmizmi yo ko‘rishmasimizmi?..*” she‘ri⁶⁰dagi “*bu yo‘l osmon bilan tutashgan*”

⁴⁹ Eshqobil Shukur. Hamal ayvoni. – T.: Sharq, 2002. – B. 254.

⁵⁰ O‘sha manba. – B. 289.

⁵¹ O‘sha manba. – B. 128.

⁵² Eshqobil Shukur. Yashil qushlar. – T.: Yozuvchi, 1995. – B. 72.

⁵³ Eshqobil Shukur. Hamal ayvoni. – T.: Sharq, 2002. – B. 282.

⁵⁴ O‘sha manba. – B. 254.

⁵⁵ O‘sha manba. – B. 255.

⁵⁶ Eshqobil Shukur. Yashil qushlar. – T.: Yozuvchi, 1995. – B. 53.

⁵⁷ Eshqobil Shukur. Hamal ayvoni. – T.: Sharq, 2002. – B. 257.

⁵⁸ Eshqobil Shukur. Ko‘z yumib ko‘rganlarim. – T.: Akademiya nashri, 2013. – B. 84.

⁵⁹ Eshqobil Shukur. Yashil qushlar. – T.: Yozuvchi, 1995. – B. 81.

⁶⁰ Eshqobil Shukur. Ko‘z yumib ko‘rganlarim. – T.: Akademiya nashri, 2013. – B. 94.

yo'ldir", "Manzil"⁶¹dagi "osmonga uzangan yo'llar", "Naqshband" dostoni⁶²dagi "osmonni yelkalagan qushlar" metaforalari va hkz);

b) *tiriklik, g'urur, or-nomus...* ("Ko'hna yurt haqida yangi she'r"⁶³da g'urur, iftixor, or-nomus tushunchalari ramzi bo'lgan osmonga hayo, xokisorlik, o'zini anglash ifodasi bo'lgan tuproq obrazining asos sifatida keltirilishi, "Salom" she'ri⁶⁴da "salom" va "vido" lafzlarini avloddan avlodga olib o'tadigan millatdoshlariga "kiftida osmonni olib yurganlar", deya ta'rif berilishi va hkz);

v) *tom, boshpanoh...* ("Hun ayoli haqida qo'shiq"⁶⁵da yorini yo'qotgan ayol faryodi "Osmonga sanchilingiz, // Motamning bayroqlari", "Cho'ng Qoya, tashlab yubor // Yelkangdan osmoningni" tarzida ifodalanishi, "Umumiy vagon"⁶⁶da "ibosiz shovqinlar, xunuk xurraklar", "chiranib baqirgan ko'zlar", "soxta shodliklar" ichidagi toshdek o'rindiqdagi ayol suyangan yelka "osmon ustuni"ga mengzalishi);

g) *cheksizlik, beg'uborlik, soflik, poklik...* ("Naqshband" dostonida Hazrati Xizrning go'dakka oq fотиha berishi osmonni qaldirg'ochlar egallashiga mengzalishi) ma'nolarini ifoda etadi.

Oy hayrati, oy timsoli bilan bog'liq **yangi so'zlar** (*Oybodom, Oybotar, Oytug'ar, Oybulut, Oyqiz, Oyo'choq, Oybola, Oyro', Oyqorong'i, mohbaliq va hkz*), **yangi istiora-metaforalar** ("kaftda porlagan oy", "manglayni yarqiratgan oy", "g'arq pishgan oy", "muzlab yotgan oy", "turma tuynugiga osilgan oy", "oyning nikoh to'yi" va hkz), **oyning turli fazalardagi tasvirlari** ("uch kunlik oy", "yo'rgakdagi oy", "hilol etagi", "qabrdagi hilol", "to'lin oy") sirlar, niyatlar aytiladigan, orzular jamlanadigan ma'vo, nurli pok ayol, ibodatga intilish zavqi, iymon quvvati, ozod ruh, ilm-ma'rifat yog'dusi, yangilanish, musulimlik ma'nolarini bildiradi. **Shamol hayratidan** hosil bo'lgan "Masih nafasi", "jon shamoli", "tong shamoli" ("Subhi sahar", "Olis bir xotira", "Goh g'amgin, goh shodmon...", "Arzi hol" she'rlari), "oydin shamol", "farishta shamol", "kurtaklayotgan shamol", "ozod shamol" ("Naqshband" dostoni, "Ko'z yumib ko'rganlarim", "Hol", "Ertaklar dalasi"), "shom shamoli", "shabboda", "shoshqin shamol", "musofir shamol", "devona shamol" ("Abdullaga", "Hammol", "Qaldirg'ochning ko'z yoshlari", "Ko'ngil qushlari", "Tog'dagi yo'l bo'yida", "Xayrli tun"), "qora shamol", "achchiq shamol" ("Nomukammallik", "So'fining o'ligi") obrazlari, asosan, qalbdagi poklanish, ruhiy tozarish, tiriklik nafasi, irfoniy muhabbat rishtasi, ezgulik-yangilik elchisi, darveshlik, Yaratgan qudratini hayrat bilan anglashga intilayotgan oshiqlik holi, shiddatli ruh bilan birga iztirob, beqarorlik, qo'nimsizlik, xaos, sokinlik, bo'm-bo'shlik, ruh cho'kishi, afsurdahollik, vasvasa, nafratni ham timsollaydi.

⁶¹ Eshqobil Shukur. Ko'z yumib ko'rganlarim. – T.: Akademnashr, 2013. – B. 44.

⁶² Eshqobil Shukur. Hamal ayvoni. – T.: Sharq, 2002. – B. 246.

⁶³ O'sha manba. – B. 286.

⁶⁴ Eshqobil Shukur. Ko'z yumib ko'rganlarim. – T.: Akademnashr, 2013. – B. 41.

⁶⁵ Eshqobil Shukur. Tunggi gullar. – T.: Yosh gvardiya, 1989. – B. 24.

⁶⁶ Eshqobil Shukur. Hamal ayvoni. – T.: Sharq, 2002. – B. 105–106.

Olov metaforalar tizimini tashkil qilgan obrazlar, asosan, **olov** (*alanga, tandir, o'choq, chiroq, gulxan, cho'g' va hkz*), **quyosh** (*kun, non, ufq, shafaq va hkz*), yulduz (*yog'du, nur, ko'z yosh va hkz*) o'zak ramzlarida birlashadi. Bunda:

– **olov hayrati** bilan bog'liq obrazlar “Chanqovuz”, “O'tov”, “Ko'nglimni toshga yordim”, “Tashlab ketilgan ming yilliklar” singari she'rlarda *erksizlikka isyon, qalb va millat ozodligiga intilish*, “Ishq va talab qayg'usi”, “Kech kuzdagi xurmozor” kabi she'rlarda *ilohiy ishq otashi, o'z nafsini irfoniy muhabbat olovida o'ldirish* ma'nolarini bildiradi;

– **quyosh hayrati** ifodasi bo'lgan “zanjirband quyoshlarim” (“O'ttizinchi yillar”), “yanchilgan quyosh”, “o'chayotgan quyosh” (“Surgun”) istioralari *ziyo, ma'rifat, intellekt va ilm tanazzuli, millat iztiroblari-yu qayg'usini, “alvon quyoshlar”, “quyosh tomog'ida pishirilgan taom...”, “zulmat qa'ridagi quyosh”, “osmon erkasi”, “olovda kuymagan po'stin”* (“Qoshg'ariy yodi” she'ri, “Naqshband” dostoni) metaforalari *iymon quvvati, ma'rifat qudratini, shuningdek, quyosh obrazi ko'ngil faryodi* (“Hun ibodati”), *hayratga erishish saodati* (“Baxtning o'lehoi”), *rizq, taqdir ne'mati, oila farovonligi* (“Bir kun”), *qalb ozodligi, erkin inson, Vatanli millat* (“Ozodlik”), *Vatan, Yaratgan marhamati* (“Ko'hna yurt haqida yangi she'r”) timsollarini ifoda etadi.

– **yulduzlar hayrati** bilan bog'liq lirik obrazlar, metafora va istioralar, asosan, **iymon yog'dusi, ilohiy nur** (“zikrdan mastona qushlar”, “falak xurjunidan to'kdi yulduzlar”, “yulduzlarga to'lar kulohi”, “dilim tuprog'iga yulduzlar ekdi” va hkz), **mayoq, farzand, ideal, tole', baxt-iqbol, orzu-umidlar, mahbuba** (“yulduzlar qo'ng'irog'i”, “allasin yulduz aytsin”, “yulduzlarni gulday sochmoqda shamol”, “yulduzlar suvidan to'yingan xayol” va hkz), **ko'z yosh, iztirob, tushkunlik, qalb og'rig'i** (“sinib qolgan yulduzchalar”, “yulduzsiz kechalar”, “oqayotgan yulduzlar”, “muzlagan yulduzlar”, “yulduz siniqlari”) ma'nolarini anglatadi.

Tuproq metaforalar tizimi, asosan, tuproq (*yo'l, dasht, tandir, bitik, sopol, mehrob, o'tov, loy, xok, ko'za, kulol, cho'pon, dehqon, yo'lbars, ilon hayratlari, daraxt, tosh o'zak ramzlaridan* iborat bo'lib, tuproqdosh, xokisor, onayurt, momozamin, otamakon tushunchalarini, tiriklik, hayot, jamiyat, inson, Vatan, yo'l, sinov, imtihon, chegara, had motivlarini ifodalaydi.

XULOSA

1. Hayrat – Alloh odamzotga in'om etgan ilk ne'mat bo'lib, inson Yaratgan qudratini, yaratilgan (borliq va yo'qlikni) va o'z mohiyatini shu yo'l bilan anglaydi. “Hayrat” istilohi odamzotning o'zi uchun sirli tuyulgan voqelikka shunchaki hissiy-fiziologik munosabatigina emas, balki hayot mazmunini anglash, kognitiv idrok yo'lidir. Hayrat qonuniyati muqaddas Qur'oni Karim oyatlari va hadisi shariflardagi “Olamdagi har bir yaratilgan – mo'jiza” modeliga asoslanadi.

2. Hayrat fenomeni, sharq-islom falsafasiga ko'ra, ma'rifat hosilasi bo'lib, Alisher Navoiy ijodining asosiy g'oyalaridan biri hisoblanadi. “Hayrat ul-abror”ning “Uch hayrat” bo'limi hayrat tushunchasining falsafiy-retseptiv, badiiy-retseptiv mohiyati yagona konseptual falsafiy-badiiy tizim sifatida yoritilgan asosiy manbadir.

“Uch hayrat” bo‘limining jahon falsafasi, dunyo va o‘zbek adabiyoti aspektidagi tadqiqi badiiy adabiyotdagi hayrat fenomeni alohida badiiy-estetik kategoriya, **hissiyot va hayronlik, tafakkur va taajjub, haqiqat va hayrat munosabatlaridan** iborat yagona konseptual falsafiy-badiiy tizim ekanini ko‘rsatdi.

3. Alisher Navoiyning “Uch hayrat” konsepsiyasi har bir shoir ijodiy shaxsiyatidagi hayrat holini aniqlash, baholash va bu badiiy-estetik darajani belgilashning asosiy mezoni-indikator, etaloni bo‘la oladi. “Uch hayrat” konsepsiyasi asosida “hayrat” (hayronlik, taajjub, lollik) tushunchasini hissiy, aqliy va ilohiy bilim nazariyalaridagi “bilish” tushunchasining muqobili sifatida ilmiy muomalaga kiritish mumkin.

4. Alisher Navoiy asarlaridagi hayrat konsepsiyasini hissiy, aqliy va ilohiy bilim halqasida tizimlashtirib, **“tuyg‘ular hayronligi”, “tafakkur taajjubi”, “ma’rifat hayrati”** tushunchalaridan iborat “Uch hayrat” badiiy-estetik formulasi sifatida istilohlashtirish maqsadga muvofiq. “Uch hayrat” formulasi tarkibiy qismlarining nazariy-estetik chegaralarini shartli ravishda **“tuyg‘ular hayronligi”**da – “yaralish” va “bilim”; **“tafakkur taajjubi”**da – “bilim” va “ma’rifat”; **“ma’rifat hayrati”**da – “ma’rifat” va “abrorlik” (“almiyoq”dagi muqaddas ahdga sadoqat) tushunchalari bilan belgilash mumkin. **“Tuyg‘ular hayronligi”** tushunchasi borliqni idrok etishning birlamchi vositalari sanalgan ko‘rish, eshitish, sezish hosilasi o‘laroq yuzaga keladigan hayronlik holatini ifodalaydi. Mazkur badiiy-estetik kategoriya tarkibiy qismlarini shartli ravishda: a) **“hissiyot hayronligi”**; b) **“ojiz gangish”**; v) **“taslimlik”** tarzida istilohlashtirish, ilmiy tasniflash o‘rinlidir. **“Hissiyot hayronligi”** tushunchasi ijodkor ko‘nglidagi hissiy taajjublilar, sezgilar mahsuli bo‘lgan hayronlikni; **“ojiz gangish”** – ijodkorning tuyg‘ulari va fikrini ifodalashidagi ruhiy-emotsional chalkashliklar, “so‘z vodiysi”dagi adashishlar uluqishlar” holini; **“taslimlik”** – ko‘ngilning o‘zini zaif, kuchsiz bir yaratq sifatida bilishi, ojizligini tan olib, iymonga yuzlanishini anglatadi. **“Tafakkur taajjubi”** tushunchasi, bizningcha, har qanday mo‘jiza va uning sabablarini tafakkur bilan anglashni ifoda etadi. Bu badiiy-estetik kategoriya tarkibiy qismlarini esa shartli ravishda: a) **“bilim taajjubi”** (aql-idrok bilan anglangan bilimlar taajjubi); b) **“yolg‘izlik parishonligi”** (botiniy o‘zgarishlar-yangilanishlar bois parishon holga tushish, qalb bilan yolg‘iz qolish); v) **“o‘zini izlash lolligi”** (ko‘ngil yaratq sifatida Yaratgan halqasida o‘z o‘rnini izlashi); g) **“ibrat taajjubi”** (yaratqilarga ibrat nazari bilan qarash, mohiyatni anglash); d) **“salimlik”** (qalb salomatligi); y) **“mo‘min banda taajjubi”** (nafs bilan kurash taajjubi) tarzida ilmiy tasnifladik. **“Ma’rifat hayrati”** badiiy-estetik kategoriyasi Yaratganni ma’rifat bilan bilishni anglatadi. Uning tarkibiy qismlarini shartli ravishda: a) **“obidlar hayrati”** (poklik, rostlik, hayo, taqvo va ixlos hayrati); b) **“zokirlar hayrati”** (tazakkur va ilm hayrati); v) **“muslimlar hayrati”** (taslimlik va salimlik hayrati); g) **“oriflar hayrati”** (ilohiy muhabbat hayrati); d) **“abrorlar hayrati”** (“al-miyoq”da bergan ahdiga sadoqatli insonlar hayrati) tarzida istilohlashtirish maqsadga muvofiqdir.

5. Badiiy adabiyotdagi “hayrat” kategoriyasi – ijodkorning olam va odam munosabatlarini badiiy-estetik va badiiy-falsafiy idrok etishi, “hayrat”

kategoriyasining binarligi hayratning voqe bo'lishidan to qabul qilinishiga qadar bo'lgan jarayonni qamrab oladigan badiiy-estetik hodisadir.

6. E.Shukur asarlari "Uch hayrat" badiiy-estetik formulasi asosida tahlil qilinganda: a) "hayrat" kategoriyasi shoir ijodiy shaxsiyatida olam va odamni estetik idrok etish va badiiy aks ettirishning birlamchi sharti sifatida namoyon bo'lganini; b) olam va odamni badiiy idrok etishda ijodkor subyekti "hayrat" kategoriyasi bilan serkulyar munosabatda ekanini ko'rsatdi. E.Shukur badiiyatidagi sharq-islom ma'rifatiga asoslangan "hayrat" kategoriyasi binarligi "*Yaratganning yakkaligini anglash va hamd bilimi*", "*niyat va ixlos bilimi*", "*ibodat, duo va zikr bilimi*", "*umid va orzu bilimi*", "*taqdir va tadbir bilimi*" singari juft bilimlar hayratida o'z ifodasini topgan. E.Shukur ijodiy shaxsiyatidagi "Uch hayrat" ko'lami ayni shu asosda belgilandi.

7. E.Shukur ijodiy shaxsiyatidagi "Uch hayrat" formulasining birinchi tizimi – **hissiyot va hayronlik munosabatlarini** quyidagi shartli – yangi istilohlar asosida tasniflash har tomonlama o'rinlidir: a) "**tuyg'ular hayronligi**"; b) "**iztirob hayronligi**"; v) "**tushkunlik hayronligi**"; g) "**taslimlik**".

8. E.Shukur ijodiy shaxsiyatidagi "**tafakkur taajjubi**" va "**ma'rifat hayrati**" badiiy-estetik kategoriyalarining tarkibiy qismlarini shartli ravishda: a) "**bilim taajjubi**"; b) "**yolg'izlik parishonligi va mensizlik lolligi**"; v) "**ibrat va tafakkur taajjubi**", "**salimlik va musulmlik hayrati**", "**mo'min banda hayrati**", "**ilm va ma'rifat hayrati**" tarzida ilmiy asoslash mumkin.

"**Tafakkur taajjubi**" kategoriyasi, avvalo, o'zlikka qaytish, ma'naviyatning qadim ildizlarini, xususan, milliy folklor va qadim turkiy tildagi yozma yodgorliklarni o'rganish natijasida ko'rinish bergan. Bunda: a) **milliy folklor bilimi** – *baxshiyona so'z qo'llash mahorati, sodda-tabiiy tasvirlar izchilligida va ko'hna obrazlar yangilanishida*; b) **qadim turkiy tildagi yozma yodgorliklar** haqidagi bilim – "Hun ayoli haqida qo'shiq", "Eng qadimgi qo'shiq", "To'nyuquq", "Hun ibodati", "Avralgan ilon", "Mohiyat", "Osmon – bu muhabbat..." kabi she'rlari, "Qadimiy bitiktoshlarga yozuvlar", "Qadimgi daftar yoxud unutilgan ohanglar" turkumlaridagi "*qora daryo*", "*Cho'ng Qoya*", "*bug'ujon*", "*kiyikning o'g'li*", "*Yashil qoya*", "*Qizil qoya*", "*arazlagan yo'lbars*", "*Mag'astvi*", "*anglanmagan Bitik*", "*quyoshga yozilgan bitik*" kabi motiv va obrazlarda namoyon bo'ladi.

9. Poetik ramzlar tili – hayrat ifodasi bo'lib, bu timsollarning aksariyati binarlik xossasiga egadir (daraxt – tuproq, quyosh – oy, suv – tosh, g'oz – qarg'a va hkz).

10. E.Shukur ijodidagi lirik obrazlar, ramzlar va istioralar lirik ifoda va individual uslubning retseptiv jarayonga xos muhim vositalari bo'lish bilan birga o'zbek adabiyotidagi suv, havo, olov va tuproq metaforalar tizimining bir butun badiiy sistemasi sifatida namoyon bo'ladi. Shoir asarlaridagi "To'rt unsur" hayrati" badiiy ramzlar strukturasi shu asosda ishlab chiqildi.

Shoir ijodiy shaxsiyatidagi "To'rt unsur" hayrati"ning:

– **suv metaforalar tizimi**, asosan, *daryo, chashma, baliq, tomchi ko‘zyosh, shudring, shabnam, sumbula, yomg‘ir, qor, qahraton, ayoz, yaldo tuni* hayratlari hosilasi bo‘lgan turfa ramzlarda;

– **havo metaforalar tizimi** – *osmon, oy, shamol* o‘zak ramzlarida;

– **olov metaforalar tizimi** – *olov, quyosh, yulduz* o‘zak ramzlarida;

– **tuproq metaforalar tizimi** – *tuproq, daraxt, tosh* o‘zak ramzlari, *tuproqdosh, xokisor, onayurt, momozamin, otamakon tushunchalari, tiriklik, hayot, jamiyat, inson, Vatan, yo‘l, sinov, imtihon, chegara, had motivlari, yo‘l, dasht, tandir, sopol, mehrob, o‘tov, loy, xok, ko‘za, kulol, cho‘pon, dehqon, yo‘lbars, ilon* hayratlari bilan bog‘liq turli poetik obrazlar, ramzlar va istioralarda badiiy ifoda etilgan.

11. E.Shukur ijodi misolida ilmiy tasniflangan “**To‘rt unsur**” hayrati” badiiy ramzlar strukturasi lirik ifoda va individual uslubning retseptiv jarayonga xos muhim vositalari bo‘lish bilan birga “hayrat” kategoriyasi insonning Yaratganni tanishi, o‘zligi va borliqni anglashidagi yetakchi ma’rifiy konsepsiya sifatida o‘zbek zamonaviy she’riyati markazida ham yashab kelayotganini ilmiy-konseptual jihatdan yetarlicha asoslaydi.

**THE ASSIGNING OF SCIENTIFIC DEGREES DSc.03/30.12.2019.Phil.19.01
SCIENCE COUNCIL UNDER TASHKENT STATE UNIVERSITY OF
UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE NAMED AFTER
ALISHER NAVOI**

**TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE AND
LITERATURE**

ABDURAHMONOVA ULDONA ABDUJAPBAROVNA

**THE CATEGORY OF “WONDER” AND ITS BINARY CHARACTER IN
THE POETRY OF ESHQABIL SHUKUR**

10.00.02 – Uzbek literature

**ABSTRACT OF THE DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD)
DISSERTATION ON PHILOLOGY**

Tashkent – 2024

The topic of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation is registered in the Higher Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan under the number V2023.1.PhD/Phil3071.

The dissertation was completed at the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (resume)) on the website of the Scientific Council (www.tsuull.uz) and on the information and education portal "Ziyo Net" (www.ziynet.uz).

Scientific supervisor: **Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich**

Doctor of philological sciences, academic

Official opponents: **Meliyev Suvonqul**

Doctor of philological sciences, professor

Toshniyozova Ra'no Toxirovna

Doctor of philosophy (PhD) on philological sciences, dotsent

Leading organization: **Samarkand state university**

The defense of the dissertation will be held at the meeting of the Scientific Council numbered DSc.03/30.12.2019.Phil.19.01 at the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi on 24 May 2024 at 10:00. (Address: 103 Yusuf Khos Hajib street, Yakkasaray district, Tashkent, 100100. Tel.: (99871) 281-42-44; fax: (99871) 281-42-44, (www.tsuull.uz); e- mail: monitoring@www.tsuull.uz.)

The dissertation can be viewed at the Information Resource Center of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi (registered with number 288). (Address: 103 Yusuf Khos Hajib street, Yakkasaray district, Tashkent, 100100. Tel.: (99871) 281-42-44; fax: (99871) 281-42-44, (www.tsuull.uz).

The abstract of the dissertation was distributed on _____, 2024.
(2024 " ____ " _ digital register statement on _____).

H.A.Dadaboyev

Chairman of the scientific council awarding scientific degrees, philologist, professor

Q.U.Pardayev

Scientific secretary of the academic council awarding scientific degrees, professor of philology

N.A.Jabborov

Chairman of the Scientific Seminar under the Scientific Council for the Awarding of Scientific Degrees, philologist, professor

INTRODUCTION (annotation of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation)

Relevance and actuality of the dissertation topic. In world philosophy and social anthropology, the concept of wonder is considered as a phenomenon that manifests itself in a set of emotions that arise in the process of perceiving one's own essence, discovering and imagining the boundless boundaries and mysterious laws of the universe. The phenomenon of wonder, which is the basis for human perception, understanding, thinking and expression of feelings, is multi-level and multi-faceted in accordance with the levels of human enlightenment. The realization of wonder, its synthesis in the psyche of the creator, its transfer to the work of art, and the stages of reflection in the reader's mind indicate that this concept has a binary nature.

The research of the phenomenon of wonder, which is considered the main concept of the Eastern-Islamic enlightenment in recent times in world literature, from an artistic-philosophical perspective, the philosophical-receptive, artistic-receptive nature of the category “wonder” and the artistic works that reflect its binary nature as a reflection of the world literary-aesthetic thinking. is supported.

Even in Uzbekistan, research of new interpretations of traditional ideas in classical religious-philosophical and mystical poetry, reflected in the works of modern artists, has begun, but the theoretical and practical essence of the concept of surprise, the artistic formula of the category “wonder” in modern Uzbek poetry, its definition and description, its place no studies have been conducted on the nature of binary. The mosaic of lyrical images in the works of Uzbek poets, metaphors and symbols, the use of words and the individuality of lyrical expression on the basis of a comprehensive scientific coverage of the phenomenon of admiration determines the necessity of the problem. Based on the poetry of Eshqobil Shukur, who entered Uzbek poetry in the second half of the 1980s, which is recognized as the period of rise of modern Uzbek poetry, on the eve of the independence of Uzbekistan, the principles of manifestation of the category of “wonder” in a lyrical work, the study of artistic perception of the world and man, and the processes of its lyrical expression as a single system , highlighting the binary nature of the “wonder” category, its place in modern Uzbek poetry, and the theoretical-aesthetic essence of studying this category means that it serves to solve the current problem facing modern Uzbek literary studies, and shows the relevance of the work.

Decrees of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-4797 dated May 13, 2016 “On the organization of activities of the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi”, No. PF-27 dated February 28, 2023 “On the state program for the implementation of the development strategy of New Uzbekistan for the years 2022–2026 in the “Year of attention to people and quality education”, PQ-2789 dated February 17, 2017 “On measures to further improve the activities of the Academy of Sciences, organization, management and financing of scientific research”, PQ-3271 dated September 13, 2017 “Development of the publishing and distribution system of book products , on the program of comprehensive measures to increase and promote book reading and reading culture”, The research of this dissertation serves to a certain extent in the implementation of the tasks defined in the resolutions PQ-3652 of April 5, 2018 “On measures to further improve the activities

of the Writers' Union of Uzbekistan" and other regulatory legal documents related to the field.

Relation of research to government programs or research plans. The dissertation was carried out in accordance with the priority direction of the republican science and technology development I. "Social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the information society and democratic state, development of innovative economy".

The level of study of the problem. The law of admiration has been studied in world philosophy and literature by Socrates, Plato, Aristotle, Francis Bacon, René Descartes, Thomas Hobbes, Hegel, Erich Fromm and other thinkers. Academic Shuhrat Sirojiddinov, in his pamphlet "The Beliefs of Alisher Navoi", describes the "three wonders" in the epic "Hayrat ul-Abror" as "ilm ul-yaqin" (theoretical knowledge in reading, learning, making logical conclusions), "ayn ul-yakin" (to a firm conclusion as a result of observation arrival) and "haqq ul-yakin (perception, feeling in oneself)" as three stages of the theory of knowledge. Literary critic U.Zhorakulov, the role and function of the phenomenon of "surprise" in the artistic chronotope of "Khamsa", firstly, the leading educational concept of the author (Alisher Navoi) in understanding the Creator and himself, secondly, the compositional traditions in the history of Hamsaism, and thirdly, the artistic interpretation of the human image in "Khamsa" scientifically based on the method. According to U.Zhorakulov, the whole concept of "Khamsa" is built on the basis of the concept of "wonder". In the "Three Wonders" section, the essence of the revolution is explained based on the synthesis of the chronotope of the "early" and "middle" worlds.

Enlightenment and wonder expressed as a way to recognize the creator, identity and being, which was able to combine national folklore and Eastern-Islamic thinking at one point, the nature of artistic components such as plot, image, composition, style, detail, symbol in the poetry of Eshqabil Shukur, a great poet in the literal sense, Eshqabil It also defines the concept of Shukur poetry.

Poems of E.Shukur were scientifically analyzed from the point of view of literary process, ideological-aesthetic and artistic features, the scope of leading poetic images in the researches of K.Yoldoshev, K.Kahramonov, A.Ulug'ov, S.Umirov, in the PhD dissertation of I.Ernazarova. However, it should be emphasized that the works of Eshqabil Shukur as a whole artistic system, the category of "wonder" in his poetry and its binary nature were not specifically researched within the framework of a single monographic problem. The creative personality of E.Shukur as a subject of aesthetic perception of the world has not been studied separately, it has not been systematized from a scientific and theoretical point of view. All this shows the need to analyze and interpret E.Shukur's poetry as an individual artistic harmony.

The connection of the dissertation research with the research work of the higher educational institution where the dissertation was completed. The dissertation was completed in accordance with the research plan of the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi within the framework of the topic "Conceptual problems of studying the history of Uzbek literature".

The purpose of the research is to study the principles of manifestation of the "wonder" category in a lyrical work based on the poetry of Eshqabil Shukur, to study

the processes of lyrical perception of the world and man and its lyrical expression as a single system, and to theoretically justify the binary nature of the process.

Tasks of the research:

scientific classification and systematization of the history of the gradual improvement, formation and manifestation of the category of “wonder” in Uzbek classical poetry, world literature, theoretical thinking;

to clarify the binary nature of the category “wonder”, its place in modern Uzbek poetry, and the theoretical-aesthetic essence of studying this category;

scientific justification of the circular relationship of the creative subject with the category of “wonder” in the artistic perception of the universe and man;

to prove that lyrical image, metaphor, symbol, lyrical expression and individual style are important tools of receptive process in E.Shukur’s lyrics;

making theoretical generalizations about the category of “wonder” and its binary function in E.Shukur’s poetry.

Research object. E.Shukur’s poetry books such as “Yurakni o‘rganish (Learning the Heart)” (1984), “Sochlari sumbul-sumbul (Her hair is wavy)” (1988), “Tungi gullar (Night Flowers)” (1989), “Yashil qushlar (Green Birds)” (1995), “Hamal ayvoni (Spring’s Porch)” (2003), “Ko‘z yumib ko‘rganlarim (My imagination)” (2013) were selected.

The subject of the research is the principles of the appearance of the category “wonder” in the lyrical work, the lyrical perception of the world and man by the creative personality of Eshqabil Shukur and the study of the processes of its lyrical expression as a single system, as well as the issues of theoretical justification of the binary nature of this process.

Research methods. Hermeneutic, biographical, psychoanalytical and structural analysis methods were used to explain the research topic.

The scientific novelty of the research consists of the following:

for the first time in Uzbek literary studies, the theoretical-aesthetic essence of the concept of wonder was studied as a separate problem in the aspect of Eastern-Islamic intellectual thought, based on the historical study of the gradual improvement of the phenomenon of surprise, its formation, its appearance in classical and modern Uzbek poetry, the categorical characteristics of surprise were established;

on the basis of Alisher Navoi's chapter “Three Wonders” of the epic “Hayrat ul-Abror”, it was scientifically and conceptually interpreted that the category “wonder” lives in the center of Uzbek classic and modern poetry as a leading educational concept in the knowledge of the Creator, identity and existence of man;

